



THE ROLE OF DIPLOMACY IN THE PROCESS OF INTERNATIONAL NEGOTIATIONS

Nigora Davlatova

2nd-year Master's student

International Relations at the University of Journalism and

Mass Communications of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: international negotiations, diplomacy, mediation, trust, dialogue, strategy.

Received: 28.03.26

Accepted: 29.03.26

Published: 30.03.26

Abstract: This article analyzes the importance, functions and limitations of diplomacy in international negotiations from a theoretical and empirical perspective. Diplomacy is the main tool of political communication between states, and performs such roles as building trust, exchanging information, mediation and applying conciliatory strategies in the negotiation process. A literature review, full case analysis and a trial model approach were used as the research methodology. The article discusses strategies for increasing the effectiveness of diplomacy in negotiations and its limitations, and in the conclusions provides recommendations on the role of diplomacy.

XALQARO MUZOKARALAR JARAYONIDA DIPLOMATIYANING O'RNI

Nigora Davlatova

Xalqaro munosabatlar yo'nalishi 2-bosqich magistranti

O'zbekiston Jurnalistika va Ommaviy Kommunikatsiya universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: xalqaro muzokaralar, diplomatiya, vositachilik, ishonch, muloqot, strategiya.

Annotatsiy: Bu maqola xalqaro muzokaralar jarayonida diplomatiyaning ahamiyati, funksiyalari va cheklovlarini nazariy va empirik jihatdan tahlil qiladi. Diplomatiya davlatlar o'rtasidagi siyosiy muloqotning asosiy vositasi bo'lib,

muzokaralar jarayonida ishonch yaratish, ma'lumot almashish, vositachilik va muruvvatli strategiyalarni qo'llash kabi rollarni bajaradi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida adabiyotlar sharhi, to'liq holatlar tahlili va sinoviy model yondashuvi qo'llanilgan. Maqola muzokaralarda diplomatiyaning samaradorligini oshirish strategiyalari va uning cheklolari haqida muhokama olib boradi hamda xulosalarda diplomatiyaning roli bo'yicha tavsiyalarni taqdim etadi.

РОЛЬ ДИПЛОМАТИИ В ПРОЦЕССЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ ПЕРЕГОВОРОВ

Нигора Давлатова

Магистрантка 2-го курса направления «Международные отношения»

Университета журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: международные переговоры, дипломатия, посредничество, доверие, диалог, стратегия.

Аннотация: В данной статье анализируются значение, функции и ограничения дипломатии в международных переговорах с теоретической и эмпирической точки зрения. Дипломатия является основным инструментом политической коммуникации между государствами и выполняет такие функции, как укрепление доверия, обмен информацией, посредничество и применение примирительных стратегий в переговорном процессе. В качестве методологии исследования использовались обзор литературы, комплексный анализ кейсов и подход, основанный на модели судебного разбирательства. В статье рассматриваются стратегии повышения эффективности дипломатии в переговорах и ее ограничения, а в заключении даются рекомендации относительно роли дипломатии.

Kirish. Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimi tobora murakkablashib borayotgan bir sharoitda, davlatlar o'rtasidagi nizolarni hal qilish, manfaatlar muvozanatini saqlash va barqarorlikni ta'minlash masalasi global kun tartibida dolzarb mavzulardan biri bo'lib qolmoqda.

Bu jarayonlarda asosiy vosita sifatida muzokaralar va ularning tabiiy tarkibiy qismi diplomatiya alohida o‘rin tutadi. Xalqaro siyosiy jarayonlarda diplomatiya nafaqat aloqa o‘rnatish va ma’lumot almashish funksiyalarini bajaradi, balki murosaga asoslangan yechimlarni ishlab chiqish, inqirozli vaziyatlarning oldini olish hamda geosiyosiy manfaatlar o‘rtasida muvozanatni saqlash imkonini beradi. Ilmiy adabiyotlarda diplomatiya turli nuqtai nazarlardan tahlil qilinadi. Realistlar uni kuch va manfaatlar vositasi sifatida ko‘rsatsalar, liberal yo‘nalish vakillari diplomatiyani hamkorlik va institutsional muloqot vositasi deb baholaydilar. Poststrukturaviy va ijtimoiy konstruktivist yondashuvlar esa diplomatiyani ijtimoiy identitetlar va tildan shakllangan muloqot sifatida izohlaydi[1]. Shu bois, muzokaralar jarayonida diplomatiyaning o‘rni faqat rasmiy muloqot bilan cheklanmay, balki siyosiy signallar, ishonch yaratish mexanizmlari, vositachilik faoliyati va tashqi siyosiy irodani ifodalash vositasi sifatida keng talqin qilinadi.

Bugungi globallashuv va ko‘p qirrali geosiyosiy jarayonlar sharoitida xalqaro muzokaralar faqat ikki tomonlama ko‘rinishda emas, balki multilateral ko‘p tomonlama va rivojlanayotgan, norasmiy diplomatiya formatlarida ham keng ko‘lamda olib borilmoqda. Bu esa diplomatik yondashuvlarning moslashuvchanligi, zamonaviy vositalardan foydalanish darajasi va diplomatik vakillarning kommunikativ kompetensiyasini muhim omilga aylantiradi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Xalqaro muzokaralar va diplomatiya masalasi xalqaro munosabatlar nazariyasi doirasida doimiy ilmiy qiziqish obyektidir. Tadqiqotda foydalanilgan adabiyotlar diplomatiyaning tarixiy rivojlanishi, nazariy asoslari, amaliyotdagi uslublari va zamonaviy yondashuvlarini o‘z ichiga oladi. Diplomatiya konsepsiyasining klassik tahlili G. R. Berridge tomonidan berilgan bo‘lib, u diplomatiyani xalqaro munosabatlarda davlatlarning manfaatlarini tinch yo‘l bilan ilgari surish vositasi sifatida tavsiflaydi. U diplomatiya vositalarining institutsional va protsessual jihatlariga alohida e‘tibor qaratadi[3]. Henry Kissinger esa diplomatiyani realpolitik nuqtai nazaridan tahlil qilgan bo‘lib, u tarixiy muzokaralar misolida kuch muvozanati va strategik hisob-kitoblar diplomatiyada qanday o‘rin tutishini ko‘rsatib beradi[4].

Ijtimoiy konstruktivist yondashuv vakili Emanuel Adler esa diplomatiyani faqat rasmiy aloqa vositasi emas, balki xalqaro identitet va ijtimoiy muloqot konteksti sifatida tahlil qiladi. Bu yondashuvga ko‘ra, diplomatlar nafaqat manfaatlar ifodachisi, balki xalqaro tasavvurlar va ijtimoiy ramzlar konstruktivi hisoblanadi[6]. O‘zbekistonlik olim Alisher Faizullaev o‘z izlanishlarida diplomatiyani “ijtimoiy diplomatiya” konsepsiyasi asosida ko‘rib chiqadi. U diplomatik faoliyatni insoniy muloqot, til, identitet va madaniy tafovutlar doirasida o‘rganadi. Faizullaevning ishlari xalqaro muzokaralarning psixologik va kommunikativ jihatlariga chuqur tahliliy yondashadi⁴. Tadqiqotda, shuningdek, xalqaro diplomatik amaliyot, BMT va boshqa

xalqaro tashkilotlar doirasidagi muzokaralarning zamonaviy shakllari, track-II diplomatiya, raqamli diplomatiya va soft power kabi konseptlar bo'yicha J. Nye N. Fisher, C. Melissen kabi olimlarning ishlari ham tahlil qilindi[8].

Natijalar. Diplomatiya bu nafaqat vosita, balki muzokaralar uchun zarur bo'lgan maydon (platforma) va subyektiv ishtirokchi sifatida ham namoyon bo'ladi. Alisher Faizullaev (2014) o'zining diplomatik tahlillarida diplomatiyani "ijtimoiy muloqot shakli sifatida" baholab, uni davlat, agentlik va diplomat o'rtasidagi murakkab o'zaro aloqalar doirasida tahlil qiladi². U diplomatni faqat topshiriq ijrochisi emas, balki muzokara jarayonining faol subyeksi deb e'tirof etadi.

Diplomatiya tarixan davlatlar o'rtasidagi muloqotni boshqarish, nizolarni hal qilish va strategik maqsadlarni ilgari surish vositasi sifatida shakllangan. G. R. Berridge diplomatiyani davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni olib borish uchun ishlatiladigan institutlashtirilgan kommunikatsion faoliyat" deb tariflaydi[2]. Xalqaro muzokaralar bu ikki yoki undan ortiq tomon o'rtasidagi rasmiy yoki norasmiy muloqotdir. Muzokaralar diplomatik jarayonlarning asosi bo'lib, ular vositasida tomonlar kelishuvga erishishga harakat qiladi. Muzokaralar davomida diplomatlar strategik axborot almashadi, ishonch muhitini yaratadi va ehtimoliy kelishuv modellarini ishlab chiqadi. Diplomatiya ushbu muzokaralarni rejalashtirish, yuritish va yakunlashda markaziy rol o'ynaydi.

Xalqaro siyosatdagi eng muhim faoliyat turlaridan biri bu muzokaralardir. Ular davlatlar, xalqaro tashkilotlar yoki boshqa xalqaro aktorlar o'rtasida kelishuvga erishish, manfaatlarni muvofiqlashtirish va nizolarni tinch yo'l bilan hal etish uchun zarurdir. Bu jarayonlarning markazida esa diplomatiya turadi. Diplomatiya bu xalqaro munosabatlarning asosi bo'lib, muzokaralarning mazmuni, uslubi va samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, xalqaro muzokaralar davlatlar yoki xalqaro tashkilotlar o'rtasida manfaatlarni muvofiqlashtirish, nizolarni hal qilish va hamkorlikni rivojlantirish uchun amalga oshiriladigan muloqot jarayonidir. Ushbu jarayonda diplomatiya muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Diplomatiya, o'z navbatida, muzokaralar samaradorligini ta'minlovchi strategik, taktikal va kommunikativ jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Diplomatiya xalqaro muzokaralarda ishtirok etuvchi tomonlarning o'zaro ishonchini oshirishga xizmat qiladi. Ishonch muvaffaqiyatli muzokaralar uchun asosiy shartlardan biri hisoblanadi, chunki u tomonlar o'rtasida ijobiy muloqot muhitini yaratadi va nizolarni zo'rvonliksiz hal qilishga imkon beradi[3]. Diplomatik muloqot vositalari, jumladan, norasmiy uchrashuvlar, oraliq vakillik, maxfiy muzokaralar, ishonchni mustahkamlashga yordam beradi.

Ikkinchidan, diplomatiya muzokaralar jarayonida tomonlar manfaatlarini aniq ifodalash va ularga erishish uchun samarali strategiyalar ishlab chiqishda muhim rol o'ynaydi. Diplomatik vakillar o'z davlatlarining siyosiy, iqtisodiy va xavfsizlik manfaatlarini himoya qilishda muzokarlarda mediatorlik va vositachilik vazifasini ham bajaradilar[4]. Shu bilan birga, diplomatlar muzokaralar davomida yuzaga kelgan ziddiyatlarni yumshatish, kompromiss variantlarini izlash va tomonlarning talablarini uyg'unlashtirish bo'yicha faoliyat yuritadilar.

Uchinchidan, zamonaviy xalqaro munosabatlarda diplomatiya bu ko'p tomonlama muzokaralar tizimida ham strategik kommunikatsiya vositasi. Bugungi kunda xalqaro tashkilotlar (BMT, YXHT, Yevropa Ittifoqi va boshqalar) doirasidagi muzokarlarda diplomatiya kollektiv qaror qabul qilish va hamkorlikni ta'minlashda markaziy ahamiyat kasb etadi[5]. Diplomatik protokol va qoidalarning aniq bajarilishi, muloqot madaniyatining saqlanishi, muzokarlarda hurmat va professionalizm darajasining yuqori bo'lishi muzokaralar natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, ijtimoiy konstruktivist yondashuvlarga ko'ra, diplomatiya nafaqat siyosiy va iqtisodiy manfaatlar uchun, balki madaniy, identitet va tildan kelib chiqadigan ijtimoiy konstruksiyalar orqali muzokaralar jarayonini shakllantiradi[6]. Bu yondashuv diplomatlarning muloqot uslubi va mazmuniga, shuningdek, muzokarlarda ijtimoiy identifikatsiya va tilning roliga alohida e'tibor qaratadi. Ijtimoiy konstruktivist yondashuvlarga ko'ra, diplomatiya muzokaralarning faqat texnik jihatini emas, balki ularning ijtimoiy va madaniy kontekstini ham shakllantiradi. Diplomatiya bu yerda "xalqaro identitetlar o'zaro muloqot qiladigan va shakllanadigan jarayon" sifatida tushuniladi[7]. Bu esa diplomatlarning kommunikativ kompetensiyasi, til, ramzlar va muomala uslubining ahamiyatini oshiradi.

Muhokama. Diplomatiya funksiyalari xalqaro muzokarlarda va diplomatiya muzokaralar jarayonida bir necha asosiy funksiyalarni bajaradi, birinchidan, Muzokaralar ishonchsiz muhitda sustlashadi yoki butunlay barbod bo'ladi. Diplomatiya esa tomonlar o'rtasida ishonchni shakllantiruvchi vositadir. Maxfiy diplomatik aloqalar, rasmiy tashriflar, ishonchni mustahkamlovchi tadbirlar muzokaralarning psixologik barqarorligini ta'minlaydi[5]. Ikkinchidan, Axborot almashinuvi. Diplomatlar orqali tomonlar muzokaralarga tayyorgarlik paytida, jarayon davomida va undan keyin ham strategik axborotni almashadilar. Ushbu almashinuv muzokaralarning yo'nalishini belgilashda muhim vositadir. Uchunchidan, Agenda belgilash va bosqichlama Diplomatlar muzokara mavzularining tartibini belgilash, muammolarni bosqichma bosqich hal qilish strategiyasini ishlab chiqishda ishtirok etadilar. To'rtinchidan, Vositalash (mediation) Ayrim hollarda diplomatlar bevosita tomon emas, balki vositachi sifatida qatnashadilar. Masalan, AQSh diplomati Henry Kissinger 1970-yillarda Yaqin Sharq

muzokaralarida vositachilik qilgan bu shuttle diplomatiya namunasi hisoblanadi[4]. Beshinchidan, Normativ ta'sir Diplomatik jarayonlar xalqaro huquq, protokol va odob axloq normalari bilan birga olib boriladi. Bu jihat muzokaralarning qonuniyligini va jamoatchilikdagi qabul qilinishini ta'minlaydi.

Diplomatiyaning xalqaro muzokaralarda samarali bo'lishi uchun bir qancha omillar muhim: diplomatik vakillarning tajribasi, siyosiy iroda, tashqi sharoitlar va ichki siyosiy barqarorlik. Biroq, quyidagi cheklovlar diplomatiya samaradorligini kamaytirishi mumkin. Bularga, Kuchlar asimetriyasi, katta davlatlar kichik davlatlar bilan muzokarada ustunlik qiladi, ichki siyosiy bosimlar, diplomatik delegatsiyalar xalqaro kelishuvlarga erishishda ichki siyosat bilan muvofiqlashtirilgan bo'lishi kerak. Raqobatli informatsion muhit axborot urushlari, noto'g'ri signal berilishi ishonchga salbiy ta'sir qiladi. Yuqoridagi omillar muzokaralarga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Xalqaro muzokaralar jarayonida diplomatiya ko'p funksiyali vosita sifatida o'zining dolzarbligini yo'qotmayapti. U ishonch muhitini yaratadi, murosaga olib keladigan yechimlarni shakllantiradi va tinchlikni ta'minlaydi. Diplomatiya bu shunchaki siyosiy faoliyat emas, balki madaniy, kommunikativ va strategik san'at bo'lib, u xalqaro barqarorlikni saqlab qolishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Xulosa. Xalqaro muzokaralar va diplomatiya bugungi globallashtirilgan, murakkab va o'zgaruvchan xalqaro munosabatlar tizimida muhim strategik vosita bo'lib qolmoqda. Tadqiqot davomida olib borilgan nazariy tahlillar, empirik misollar va zamonaviy diplomatik tajribalar asosida shuni ta'kidlash mumkin: diplomatiya xalqaro muzokaralarning markaziy ustuni, barqarorlikni ta'minlovchi muhim kommunikativ va murosaviy mexanizm hisoblanadi.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, diplomatiyaning xalqaro muzokaralardagi roli bir necha asosiy yo'nalishlarda namoyon bo'ladi. Strategik vosita sifatida Diplomatiya muzokaralarning strukturasi, formati va tartibini belgilashda asosiy vosita hisoblanadi. Davlatlar o'z tashqi siyosiy maqsadlarini amalga oshirish, geosiyosiy pozitsiyalarini mustahkamlash va manfaatlarini himoya qilishda diplomatik muzokaralarni asosiy qurol sifatida ishlatadilar. Diplomatiya xalqaro subyektlar o'rtasidagi rasmiy va norasmiy muloqotning asosiy shakli bo'lib, u orqali axborot almashinuvi, ishonch yaratish, pozitsiyalarni muvofiqlashtirish va taraflar o'rtasida psixologik yaqinlik o'rnatiladi. Diplomatik til va nutq uslubi muzokaralarning ijobiy natijalar bilan yakunlanishida muhim rol o'ynaydi.

Zamonaviy ijtimoiy konstruktivist yondashuvlarga ko'ra, diplomatiya shunchaki siyosiy muloqot vositasi emas, balki xalqaro identitetlar, madaniy tafovutlar va ramzlar o'rtasida ko'pri

vazifasini bajaradi. Diplomatlar nafaqat siyosiy aktorlar, balki ijtimoiy-psixologik vositachilar sifatida maydonga chiqadilar. Diplomatiya xalqaro huquq va me'yorlar doirasida faoliyat yuritadi. U muzokaralarning qonuniyligi, barqarorligi va halolligini kafolatlovchi institutsional mexanizmga aylangan. Diplomatik protokol, vakolat, vositachilik va muzokaralardagi etiket qoidalari orqali muzokaralarning formal strukturasi yaratiladi. Tadqiqot davomida diplomatlarning psixologik holati, shaxsiy fazilatlari, emotsional intellekti va madaniyatlararo kompetensiyasi muzokaralarning borishi va natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillar ekanligi aniqlandi. Ayniqsa, noaniqlik, bosim va ziddiyatli vaziyatlarda psixologik barqarorlik muvaffaqiyatli diplomatik muzokaralarning garovi hisoblanadi. Tahlillardan ma'lum bo'ldiki, hozirgi davrda diplomatiya va muzokaralar doirasi kengayib bormoqda. Endilikda, faqat davlatlar emas, balki xalqaro tashkilotlar, nodavlat notijorat tashkilotlar (NGO), xalqaro kompaniyalar, hatto fuqarolik jamiyati institutlari ham muzokaralarda bevosita yoki bilvosita ishtirok etmoqda. Bu holat diplomatiyaning klassik shakldan interaktiv, ko'p qatlamli, "yumshoq kuch"ga asoslangan zamonaviy shakllariga o'tishini anglatadi.

Diplomatiyaning yangi shakllari raqamli diplomatiya, track-II diplomatiya, ilmiy diplomatiya, madaniy diplomatiya, shuningdek, gender yondashuvi asosidagi diplomatik ishtirok xalqaro muzokaralarning ko'lamini kengaytirmoqda. Ushbu shakllar orqali jamoatchilik, ommaviy axborot vositalari va global axborot texnologiyalari diplomatik maydonning faol subyektlariga aylanmoqda. Shuningdek, tadqiqotdan chiqadigan muhim xulosalardan biri shuki, diplomatiya samaradorligi bevosita milliy diplomatik maktab, kadrlar salohiyati va tashqi siyosat strategiyasiga bog'liq. Davlatlar o'zining diplomatik strategiyasini shakllantirayotganda, faqat xalqaro kontekstni emas, balki ichki siyosiy, ijtimoiy va madaniy resurslarini ham inobatga olishi zarur.

Xalqaro muzokaralar jarayonida diplomatiya ko'p qirrali va kompleks vosita sifatida nafaqat global xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashda, balki insoniyatning umumiy manfaatlariga xizmat qiluvchi xalqaro hamkorlik muhitini shakllantirishda ham hal qiluvchi rol o'ynaydi. Diplomatiya o'zining funksional xilma xilligi, kontekstual moslashuvchanligi va kommunikativ kuchi orqali xalqaro siyosatda muhim mexanizm bo'lib qolmoqda. Shu sababli, bugungi murakkab va ko'p tomonlama xalqaro muhitda diplomatiyaning samarali yuritilishi bu faqat tashqi siyosiy ustunlik emas, balki global barqarorlik, tinchlik va taraqqiyotning asosi ekanligini ta'kidlash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Faizullaev, Alisher "Diplomatic Interactions and Negotiations", Negotiation Journal, Vol. 30, No 3, pp. 275-299.

2. Berridge, G. R. *Diplomacy: Theory and Practice* (5th ed.). Palgrave Macmillan.2015.
3. Berridge, G. R. (2015). *Diplomacy: Theory and Practice* (5th ed.). Palgrave Macmillan, p. 112.
4. Kissinger, H. *Diplomacy*. Simon & Schuster, p. 78.1994.
5. Manners, I. Normative Power Europe: A Contradiction in Terms. *Journal of Common Market Studies*, 40(2), 235-258. p. 456.2002.
6. Adler, E. Seizing the Middle Ground: Constructivism in World Politics. *European Journal of International Relations*, 3(3), 319-363. p. 327. 1997.
7. Holsti, K. J. *International Politics: A Framework for Analysis*. Prentice Hall. pp.37.1992..
8. Nye, J. S. *Soft Power: The Means to Success in World Politics*. Public Affairs.2004.